

17-dars

Darsning mavzusi: Zid ma'noli so'zlar

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarga zid ma'noli so'zlarni o'rgatish; so'zlarga so'roq bera olish ko'nikmasini o'stirish; talaffuz me'yorlariga rioya qila olish, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish;

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni tabiat in'omlarini asrab-avaylash ruhida tarbiyalash; o'z fikrini boshqa manbalarga tayangan holda asoslay olish ko'nikmasini shakllantirish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunib, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va o'rtoqlariga yordam berish;

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarning eshitish idrokini rivojlantirish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars

Darsning metodi: suhbat, mustaqil ish metodi, *“Moslashtirish”* va *“Bilag'on”* ta'limiy o'yini.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, so'zlar yozilgan kartochkalar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish; navbatchi axboroti; kun, oy, yil yangiliklari.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi

Kichik “g” harfi ikki unsurdan, birinchi unsur to'liq oval, ikkinchi unsur osti halqali uzun tayoqchadan iborat.

Daftarga bir qator kichik “g” harfini va shu harf bilan bog'langan so'zlarni yozadilar: gul, gilam, gugurt, ganch.

III. Yangi mavzu bayoni.

Bir-biriga qarama-qarshi ma'noli so'zlar zid ma'noli so'zlar deyiladi. Masalan: baland-past, novcha-pakana.

Darslikdagi 77-mashq o'quvchilar bilan birgalikda ishlanadi. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga zid ma'noli juftlar topiladi, savollarga javob beriladi.

Mehnatkash-dangasa, ishyoqmas

To'g'ri so'z-yolg'onchi

Dangalchi-tovlamachi

- Qanday so'zlar zid ma'noli so'zlar sanaladi?

- Zid ma'noli so'zlarga misol keltiring ular qaysi so'roqlarga javob bo'ladi?

IV. Yangi mavzuni mutahkamlash.

78-mashq yozma bajariladi. Maqollar ko'chirilib, ularning mazmuni haqida suhbatlashiladi. Zid ma'noli so'zlar topilib, tagiga chiziladi.

Zid ma'noli so'zlar: erta-kech, do'st-dushman, achitib-kuldirib, yaxshi-yomon, avval-oxir, mehnat-rohat, oz-ko'p.

79-mashq yozma bajariladi. Berilgan so'zlar ma'nosiga ko'ra juftlashtirib yoziladi.

Issiq-sovuq, yangi-eski, katta-kichik, jasur-qo'rqqoq, qiyin-oson, do'st-dushman, foyda-zarar.

V. Darsga yakun yasash va baholash

O'quvchilarning darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, guruhlardagi faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko'ra o'qituvchi tomonidan baholab boriladi. Dars yakunida umumiy baholar e'lon qilinadi va faol, bilimdon o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

80-mashq. Quyidagi so'zlarning zid ma'noli juftlarini topib, ular ishtirokida so'z birikmalari tuzing va daftaringizga yozing.

Oz-ko'p, qalin-yupqa, ulkan-kichik, keng-tor, yer-osmon, kun-tun, toza-kir.